

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 4



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Sabirova Umida OLIY TA'LIM SIFATINI MONITORING QILISH MODELI.....	5
2. Fayzieva Farogat MA'LUMOTLAR TO'PLASH JARAYONI SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHI SIFATIDA.....	13
3. Mardiyeva Malika XX-XXI- ASRLARDA ISLOM MADANIYATIDAGI GENDER MUNOSABATLARI.....	23
4. Махмудова Малика ОПТИМИЗАЦИЯ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ ДЛЯ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ДОМАШНЕГО НАСИЛИЯ В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	30
5. Tagaymutatova Gulchehra RAQAMLI TEXNOLOGIYANING INNOVATSION OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI.....	38
6. Shukurova Sevara OIV EPIDEMIYASI BILAN KURASHDA KOMPLEKS YONDASHUV TIZIMI.....	44
7. Razzakova Nargis JAMIYATNI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING O'ZGARISH DINAMIKASI.....	51
8. Samadov Shohzod JAMIYATDA IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUV RIVOJIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING AHAMIYATI (sotsiologik yondashuv).....	59
9. Kadirov Mirsulton IJTIMOIIY-MADANIY SOHADAGI MUAMMOLARNI HAL QILISHDA DAVLAT HOKIMIYATI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARI.....	66
10. Kasimov Abdumavlon MAHALLIY BUDJET IJROSI USTIDAN DEPUTALIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOIIY-SIYOSIY OMILLARI.....	80
11. Usmonova Rohila AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI.....	87
12. Samadov Shohzod YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALARI (Fuqarolik jamiyati institutlari misolida).....	95

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Shukurova Sevara,

Guliston Davlat Universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

e-mail: sevara4800@gmail.com

OIV EPIDEMIYASI BILAN KURASHDA KOMPLEKS YONDASHUV TIZIMI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14187512>

ANNOTATSIYA

Maqolada OIV infektsiyasi, uning tarqalishi, tibbiy va ijtimoiy omillari muhokama qilinadi. Tibbiy va ijtimoiy jihatlarni bir vaqtda hisobga olgan holda OIV epidemiyasiga qarshi kurash samaradorligini oshirish yo'llarini muhokama qiladi. OIV infektsiyasining kelib chiqish sabablari, uni oldini olish bo'yicha profilaktika choralarini va ularning samaradorlik darajasi tahlil qilinadi. Muallif profilaktik choralar orqali epidemiya tarqalishini oldini olish, ART orqali bemorlarning hayot sifatini yaxshilash va ijtimoiy stigma bilan kurashish orqali ularning jamiyatda integratsiyasini ta'minlash mumkin degan xulosaga kelgan. Shuningdek, ushbu tashxisga ega bo'lgan shaxslarning - migrantlar, zaif ijtimoiy guruhlar, narkomanlar, foxishalar orasida ko'plab uchrashi maqolada yoritilgan.

Kalit so'zlar: OIV, OITS, ijtimoiy omil, migrant, zaif guruxlar, narkomaniya, sog'lom turmush tarzi, qashshoqlik, JSST, SDG 3.3, 95-95-95 strategiyasi, AVT terapiyasi.

Шукурова Севара,

Гулистанский государственный университет

Преподаватель кафедры социальных наук

e-mail sevara4800@gmail.com

СИСТЕМА КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К БОРЬБЕ С ЭПИДЕМИЕЙ ВИЧ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются ВИЧ-инфекция, ее распространение, медицинские и социальные факторы. Обсуждаются пути повышения эффективности борьбы с эпидемией ВИЧ путем одновременного учета медицинских и социальных аспектов. Анализируются причины ВИЧ-инфекции, профилактические меры по ее предотвращению и уровень их эффективности. Автор пришёл к выводу о том, что предотвратить распространение эпидемии можно с помощью профилактических мер, а также улучшить качество жизни пациентов можно с помощью АРТ и обеспечить их интеграцию в общество путем борьбы с социальной стигмой. Также отмечается, что данная проблема особенно актуальна среди определенных групп населения, таких как мигранты, уязвимые социальные группы, наркоманы и секс-работницы.

Ключевые слова: ВИЧ, СПИД, социальный фактор, мигрант, уязвимые группы, злоупотребление психоактивными веществами, здоровый образ жизни, бедность, ВОЗ, ЦУР 3.3, стратегия 95-95-95, ПВТ-терапия.

Shukurova Sevara,
Gulistan State University
Teacher of the Department of Social Sciences
e-mail:sevara4800@gmail.com

SYSTEM OF INTEGRATED APPROACH TO FIGHT AGAINST HIV EPIDEMIC

ABSTRACT

The article discusses HIV infection, its spread, and both medical and social factors involved. It presents analytical perspectives and ideas on achieving effectiveness in the fight against the HIV epidemic by addressing social factors alongside medical approaches. The article analyzes scientific concepts regarding HIV infection, its causes, preventive measures aimed at controlling its spread, and the effectiveness of these measures. The author came to the conclusion that the spread of the epidemic can be prevented with the help of preventive measures, and the quality of life of patients can be improved with the help of ART and their integration into society can be ensured by combating social stigma. It also highlights the prevalence of HIV among specific groups, including migrants, vulnerable social groups, drug users, and sex workers.

Key words: HIV, AIDS, social factor, migrant, vulnerable groups, substance abuse, healthy lifestyle, poverty, WHO, SDG 3.3, 95-95-95 strategy, AVT therapy

KIRISH

Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromiga (OITS) olib keladigan virus OIV infeksiyasi bo‘lib, bugungi kunda global muammolardan biriga aylanganligini raqamlarda ko‘rib chiqamiz:

Hozirda dunyo aholisi soni	8,140,835,007
Bu yil vafot etganlar soni	119,114,678
Bu yil yuqumli kasalliklardan o‘limlar soni	23,304,642
Bu yil mavsumiy grippdan o‘limlar soni	917,468
Bu yil OIV/OITS tufayli o‘limlar soni	3,019,472
Bu yil bezgakdan o‘lganlar soni	708,010
Bu yil yo‘l-transport hodisalari natijasida o‘limlar soni	2,423,314
Bu yil o‘z joniga qasd qilgan odamlar soni	1,930,023 [1].

Ushbu ro‘yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Lekin e‘tiborni OIV bilan vafot etganlar soniga qaratadigan bo‘lsak, eng peshqadam raqamlardan ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Bu yil dunyo bo‘yicha OIV/OITS bilan kasallangan odamlar soni 45,858,699 [2] nafarga teng.

Yuqorida keltirilgan raqamlar OITS/OIVning qanchalik bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Ko‘plab davlatlarda OITS/OIV termini bilan infeksiya so‘zi o‘rniga “epidemiya” termini qo‘shib ishlatilmoqda. Ushbu birikma OITS ning keng sur‘atlarda tarqalayotganligini, hamda butun dunyoda eng jiddiy ijtimoiy va tibbiy muammolardan biriga aylanib ulguranligini isbotidir. OIVning tarqalishi nafaqat tibbiy masala, balki uning ijtimoiy sabablari va oqibatlari dolzarbdir. O‘zbekistonda ham OIVga chalinganlik holatlari ko‘payib bormoqda va bu muammoning ijtimoiy omillarini o‘rganish orqali unga kurash samaradorligini oshirish kerakligini anglatadi.

METODOLOGIYA

Bugungi kunda OIV/OITS dunyo miqiyosida rivojlanib bormoqda. O‘z navbatida meditsina sohasida ko‘plab izlanishlar, tadqiqotlar, yangiliklar qilinmoqda. Hozirgi kunda OIV infeksiyasini yuqtirib olgan inson Antiretrovirus terapiya (ART)ni o‘z vaqtida qabul qilsa, sog‘lom turmush tarziga amal qilsa sog‘lom insonlar kabi umr ko‘rish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishligiga erishilgan. Bu haqida vrach, epidemiolog Akulova Marina Vitalievna “Методы оценки и мониторинга и

повышения приверженности к антиретровирусной терапии” nomli maqolasida artoflicha yoritgan. Bundan tashqari OITSning oldini olish va unga qarshi kurashish ilmiy-metodik markazi (V.V.Pokrovskiy, N.N.Ladnaya V.V.Belyaeva, N.V.Kozyrina, O.G.Yurin) tomonidan yozilgan OIV infeksiyasining profilaktikasiga bag‘ishlangan metodik qo‘llanmasi va bir qancha ilmiy maqola, metodik qo‘llanmalar mavjud. Bu o‘z navbatida ushbu muammoni ilmiy o‘rganish va tahlil qilish, unga yechim topish kabi vazifalarni osonlashtirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV) – odamning surunkali yuqumli immunitet tanqisligi kasalligini qo‘zg‘atuvchi hisoblanadi, OIV infeksiyasi – odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan surunkali yuqumli immunitet tanqisligi kasalligi bo‘lib, orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) – odamning immunitet tanqisligi virusi odamning immun tizimini shikastlashi natijasida kasallik belgilari kelib chiqadigan OIV infeksiyasining so‘nggi bosqichidir [3]. OIV tanadagi oq qon hujayralarini nishonga olib, immunitetni zaiflashtiradi. Natijada sil, tanadagi boshqa infeksiyalar va saraton kabi yondosh kasalliklar bilan kasallanishga zamin yaratadi. OIV yuqtirgan odamning tana suyuqliklari, jumladan qon, ona suti, sperma va vaginal suyuqliklar orqali tarqaladi. Bu o‘pish, quchoqlash, birgalikda ovqatlanish orqali yuqmaydi [4]. OIV infeksiyasini davolab bo‘lmaydi, biroq OIVning samarali oldini olish, diagnostika qilish, parvarish qilish borasida global miqiyosda jadal ishlar amalga oshirilmoqda. Insoniyat hayoti, sog‘lig‘iga katta xavf solayotgan kasallik bilan JSST, Global jamg‘arma, va UNAIDS 2030 yilgacha OIV epidemiyasini tugatish bo‘yicha SDG 3.3 maqsadiga mos keladigan OIV strategiyalariga ega [5].

SDG 3.3- Sustainable Development Goals- Barqaror rivojlanish maqsadlari. OITS, sil, bezgak va e‘tibordan chetda qolgan tropik kasalliklar epidemiyasini tugatish va gepatit, suv bilan yuqadigan kasalliklar va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish strategiyasi. 2022-2030-yillarga mo‘ljallangan Global sog‘liqni saqlash sektori strategiyalari (GHSS) 2030-yilga kelib OITS va virusli gepatit va jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar epidemiyasini tugatish, shu jumladan kamaytirish bo‘yicha kasalliklarga xos maqsadlarni ilgari suradi. 2025-yilga kelib 1000 nafar kasallanmagan aholiga OIV bilan kasallanganlar soni 0,05 ga, 2030-yilga kelib 0,025 ga yetishi ilmiy pragnoz qilinmoqda. Insoniyatni barqaror rivojlanishi uchun SDG 3.3 (Barqaror rivojlanish maqsadlari) sakkiz yil davomida mamlakatlar va JSST tomonidan ustuvor harakatlarni boshqaradigan beshta strategik yo‘nalishni o‘z ichiga oladigan dastur ishlab chiqdi:

1. Insonlarga yuqori sifatli, aniq faktlardan iborat bo‘lgan xizmatlarni taqdim etish.
2. Sektorlar va hamkorliklarni optimallashtirish.
3. Aniq ma‘lumotlarga asoslanib, qaror qabul qilish va shu asosida harakatlanish.
4. Vakolatli jamoalar hamda fuqarolik jamiyatlarini jalb qilish.
5. Innovatsiyalarni rag‘batlantirish.

Bundan tashqari JSST 2023-yil yakuniga bag‘ishlangan hisobotida keltirilishicha, OIV epidemiyasi eng tez rivojlanayotgan mintaqada deb, Yevropa mintaqasi qayd etilgan. JSST rasmiy saytida e‘lon qilingan hisobotida Yevropa bo‘yicha mintaqaviy direktor Xans Klyuge kasallikning ortib borishini “Taqdinning sho‘ri” deb atalgan. Dunyoning boshqa mintaqalariga qaraganda Yevropada OIVga qarshi kurashishning barcha vositalari mavjud, lekin shunga qaramay aholi orasida kasallanish ko‘rsatkichlari juda tez sur‘atlarda o‘sib bormoqda, hamda o‘lim ko‘rsatkichlari ham yuqoriligi ta‘kidlangan. So‘nggi 10 yil davomida Yevropa mintaqasida OIV yuqtirgan bemorlarga kech tashxis qo‘yilmoqda, bunga ularning shifokorga kech murojaat qilganliklari, o‘z OIV statuslarini kech bilishlari sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari JSST tasnifiga ko‘ra, nafaqat Yevropa mamlakatlari balki, Rossiya, Armaniston, Gruziya, Islandiya, Isroil, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Tojikiston kabi davlatlarda ham OIV infeksiyasi tarqalishi ko‘rsatkichlari balandligi JSST hisobotida qayd etib o‘tilgan [6].

O‘zbekistonda 45 mingdan ortiq shaxs OIV infeksiyasi bilan yashab kelmoqda. 2022-yilda infeksiyaga tekshiruvlar soni 700 mingdan 3,5 millionga yoki 5 barobarga ortgan. Ayni paytda hukumat tomonidan dori vositalarini moliyalashtirish 80%ni tashkil etadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan 20% holatlarda dorilarni Respublikaga olib kirishda va kasallik aniqlanishi bilanoq, barcha bemorlarga dori vositalari berib borilishi yo‘lga qo‘yilgan. OIVning onadan bolaga tug‘ruq

jarayonida yuqishi 95%ga kamaygan. Shu bilan birga onadan sut orqali yuqishini oldini olish maqsadida OIV onadan tugʻilgan bolalar 6 oy davomida quruq sut mahsulotlari bilan taʼminlanib turiladi.

Bundan tashqari 18 yoshgacha boʻlgan OIV infeksiyasiga chalingan bolalarga ijtimoiy nafaqalar berilishi yoʻlga qoʻyilgan. BMT ning Bosh Assambleyasi tomonidan 2030-yilga borib OIV epidemiyasiga barham berish uchun “95-95-95” strategiyasi oʻlga surilgan. Uning doirasida OIV infeksiyali shaxslarning 95 foizi oʻz maqomini bilishlari, 95 foizi maxsus davolanish kurslari bilan qamrab olinishlari, yana 95 foizi qonida virus yuklamasi aniqlanmaydigan darajaga tushishiga erishish maqsadi belgilangan. 2023-yilda “Aholi orasida OIV infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga doir 2023-2027-yillarga moʻljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi” ni amalga oshirish maqsadida 120 mlrd soʻm va 54 mln dollar yoʻnaltirilgan [7].

Bu raqamlar hammasi OIV bilan kurashish choralari boʻlib, infeksiya yuqqandan keyin tibbiy, psixologik yuqishidan oldin ijtimoiy kurashishni keng yoʻlga qoʻyish maqsadga muvofiq ekanligini anglatadi. Oʻzbekistonda ham OIVga chalinganlik holatlari koʻpayib bormoqda va bu muammoning ijtimoiy omillarini oʻrganish orqali unga kurash samaradorligini oshirishi mumkin.

OIV epidemiyasining tarqalishi turli ijtimoiy omillarga bogʻliq, ulardan asosiylarini koʻrib chiqib tahlil qilamiz:

Birinchidan, kasallikni orttirib olishda u toʻgʻrisida aniq maʼlumotga ega boʻlmaslik. OIV toʻgʻrisida maʼlumotga ega boʻlmaslik virusning keng tarqalishiga sabab boʻladi. Aholi orasida OIV ning yuqish yoʻllari uning salbiy oqibatlari va oldini olish choralari yetarli darajada xabardorlik mavjud emas. Aholi orasida OIV boʻyicha xabardorlik darajasini oshirish hamda toʻgʻri maʼlumotlarni tarqatish kasallikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi sabab: migratsiya, chet elda ishlovchilar, savdo-sotiq bilan shugʻullanuvchilar orasida koʻp uchrashligi. Ular nafaqat xavf guruxi boʻlibgina qolmay, balki kasallik tarqalishi xavfini keltiruvchi shaxslar hisoblanishadi. Migrantlar va savdo-sotiq bilan shugʻullanuvchi shaxslar orqali OIV yuqishi xavfi yuqori boʻladi. Ayniqsa xavf guruxiga ularning oilalari kiradi. Koʻpincha ular oʻzlari bilmagan holda virus tarqatuvchisiga aylanishlari mumkin. Oʻzbekistonda iqtisodiy vaziyat tufayli migratsiya oqimining oʻsishi, mehnat migrantlarining salomatlik bilan bogʻliq muammolarga duch kelishi, chet elga ishlash maqsadida ketganlarning oila aʼzolari bilan birga ketmasliklari, natijada sogʻlom turmush tarziga amal qilmagan holda tartibsiz jinsiy hayot olib borishlari - OIV zanjirini uzilmasligiga sabab boʻlmoqda. Shuning uchun mehnat migrantlari orasida OIV ga qarshi profilaktik suhbatlar olib borish, Oʻzbekistonga qaytishlari bilan OIV infeksiyasiga tashxis topshirib, keyin oila aʼzolari bilan sogʻlom, tartibli jinsiy hayot kechirishlari nazoratini kuchaytirish muhim.

Uchinchi sabab: – bu xavfli turmush tarzidir. OIV kasalligiga chalinish xavfi yuqori boʻlgan guruxlarga fohishalik bilan shugʻullanuvchilar, transgenderlar, narkotik vositalarini qabul qiluvchilar va shaxsiy himoya vositalarisiz tartibsiz jinsiy munosabatga kirishuvchilar kiradi. Narkomaniya orqali virus yuqtirishning asosiy yoʻllaridan biri bu umumiy ignalardan foydalanishdir. Bu yoʻl bilan virusning tarqalishi xavfi katta boʻladi. OIVning tarqalishida oʻzlaring katta hissalarini qoʻshishda eng peshqadamlikda fohishalardir. Shu bilan birga maxsus himoya vositalarisiz tartibsiz jinsiy aloqaga kirishuvchilar ham OIV yuqtirishiga katta hissa qoʻshib kelmoqda. Xavfli turmush tarzini oldini olish choralari sifatida, xavfsizlik qoidalari haqida maʼlumotlarni tarqatish va profilaktik suhbatlar, tadbirlar olib borish samarali natija berishi mumkin.

OITS tarqalishini kamaytirish va unga qarshi kurashdagi qoʻshimcha jihatlar ham mavjud. Quyida ularga toʻxtalib oʻtamiz.

1.OIV ning ijtimoiy hamda iqtisodiy omillari boʻlib kasallikka chalinganlar turmush tarziga jiddiy taʼsir koʻrsatadi.

-Ijtimoiy stigma: OIVga chalingan insonlarga nisbatan stigmatizatsiya va diskriminatsiya koʻpincha davolanishga boʻlgan qiziqishni kamaytiradi.

-Iqtisodiy jihatlar: OIV tarqalishining yuqori darajalari qashshoqlik, ish joyining yoʻqligi va sogʻliqni saqlash tizimlarining zaifligi bilan bogʻliq. Iqtisodiy rivojlanish va ish bilan taʼminlash dasturlari OIV tarqalishini kamaytirishga yordam berishi mumkin.

2. Sogʻliqni saqlash tizimidagi oʻzgarishlar:

-Integratsiyalashgan xizmatlar: OIV ga qarshi kurashda sog'liqni saqlash tizimini yaxshilash va OIV bilan bog'liq xizmatlarni birlashtirish, davolash va umumiy sog'liqni saqlash xizmatlari o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatish muhimdir.

-Telemeditsina: OIVga chalingan bemorlarga masofaviy tibbiy yordam ko'rsatish, dori vositalarini qabul qilish va davolash jarayonini televideniya orqali, ko'rsatuvlar orqali muntazam yoritib borish.

3. Innovatsion tadqiqotlar:

-OIVga qarshi yangi avlod dori vositalari ustida tadqiqotlar davom etmoqda. Hozirda AVT terapiyasini muntazam qabul qiluvchilarda virus yuklamasi ko'rsatkichlari pastligi, boshqalarga yuqish darajalari kamligi aniqlangan.

-Hujayra terapiyasi: Hujayra muhandisligi va gen terapiyasi yordamida OIVni inson organizmidan butunlay yo'q qilishning yangi imkoniyatlari borasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

4. Global hamkorlik.

-BMT, JSST, UNAIDS kabi tashkilotlar OIVga qarshi kurash uchun resurslar ajratib kasallikka qarshi kurashda davlatlarni moddiy jihatdan, tibbiy yordamlar ajratib qo'llab-quvvatlamoqda.

-Milliy va xalqaro strategiyalar: Har bir mamlakat o'zining OIVga qarshi kurash strategiyalarini ishlab chiqqan va bu strategiyalar xalqaro miqiyosida baholanadi. Jumladan O'zbekistonda OIVga chalingan bemorlarga AVT terapiyasi davlat tomonidan moliyalashtirilishi, nafalar ajratilishi yo'lga qo'yilgan.

5. Qon donorligi va OIV.

-OIV ning qon orqali tarqalishi: OIV tarqalishining oldini olish uchun qon donorligini xavfsizlashtirish va donorlar to'g'risida ma'lumotlarni yangilash zarur. Jarrohlik amaliyoti natijasida bemorlarga qon qo'yish davomida OIV yuqtirish xavfi mavjud. OIVning yashirin davri 10 yillarga cho'zilishi mumkin. Shu davr oralig'ida OIV infeksiyasi tahlil natijalari musbat chiqishi, lekin boshqa inson tanasida manfiy ko'rsatkichlarni ko'rsatishligi hollari ham mavjud.

6. Klinik sinovlar va tadqiqotlar:

-Yangi davolash usullari: OIVga qarshi kurashda klinik sinovlar davom etmoqda. Bu sinovlar yangi dorilar va davolash usullarini yo'lga qo'yilishiga yordam beradi.

OIV bilan kasallanishni oldini olib, profilaktik choralarni ko'rish muhim ahamiyatga ega. Biroq kasallikka chalinganlar bilan tibbiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik jihatdan ishlash zaruriyati kasallikni boshqalarga yuqish zanjirini uzishga xizmat qilishi mumkin. OIV bilan kasallangandan so'ng turli oqibatlarga olib kelishi, bemorning sog'lig'ida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishi, iqtisodiy xolatining yomonlashuvi, psixologik tushkunlikka tushishi va bu holatlar bemorning ijtimoiy turmush tarziga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Quyida OIV bilan kasallangandan so'ng ijtimoiy oqibatlarini sanab o'tamiz.

-Ijtimoiy yotqilik va stigma. OIV infeksiyasi bilan kasallanishni boshidan kechirayotgan shaxslar jamiyatda ijtimoiy yotqilik va stigmaga duch kelishadi. Kasallik bilan bog'liq salbiy munosabatlar ularning sog'lom insonlar bilan muloqotga kirishishidagi diskriminatsiya holatlariga olib keladi, bu esa o'z navbatida ularning jamiyatdagi o'rni va hayot sifatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. OIV bilan kasallanganlar ko'pincha o'zlaring ijtimoiy oqimidan chetlatilgan holda his qilishadi. Bu esa davolanishga murojat qilish va tibbiy yordam olish imkoniyatini cheklaydi. Stigmaning mavjudligi bemorlarning kasallik haqida ochiq so'zlashidan, so'nggi natijada esa profilaktika va davolanish jarayonlaridan foydalanishidan tiyilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun OIV kasalligiga qarshi samarali kurashish uchun ijtimoiy yotqilikni yengish va stigmani kamaytirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini jadallashtirish zarur.

-Tibbiy xizmatlardan foydalanishdagi qiyinchiliklar. OIVga chalingan shaxslar ko'p hollarda tibbiy xizmatlardan foydalanishda turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarning asosiy sabablaridan biri- ma'lumot, axbarot yetishmasligi, ya'ni OIVga chalingan bemorlar zarur tibbiy yordam olishda stigma va diskriminatsiya tufayli tibbiy yordam olishdan qo'rqib, o'z hollarini yomonlashtiradilar. Bundan tashqari kichik qishloq hududlarda tibbiyot xodimlari orasidagi tanish insonlarning faoliyat yuritayotganligi bemorlar orasida kasalliklari oshkor bo'lishligi xavfi ko'plab

bemorlarning tibbiyot muassasalariga murojaat qilishlariga to'sqinlik qilmoqda. OIV bilan bog'liq steriotiplarni yo'q qilish kabi choralarni ko'rish muhim ahamiyatga ega.

- OIV tarqalishiga qarshi ijtimoiy kurash usullari. Axborot kompaniyalari OIVning oldini olish va unga qarshi kurashishda aholini to'g'ri ma'lumotlar bilan ta'minlash asosiy choralardan biri hisoblanadi. Jamiyatda OIV haqidagi bilimlarni oshirilishi, virusning yuqish yo'llari, oldini olish choralari va davolash imkoniyatlari haqida Axborot kompaniyalari orqali to'liqroq tasavvur hosil qilish.

O'zbekistonda OIV infeksiyasiga qarshi kurashish maqsadida bir qator tadbirlarni amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20-yanvar 2023-yildagi PQ-14-sonli "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallikka qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[8], Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 84-sonli "O'zbekiston Respublikasi odam immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha yoshlar faoliyatida olib boriladigan tizimli targ'ibot tadbirlari konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori [9] qabul qilindi. Ushbu konsepsiya asosida aholi ayniqsa yoshlar orasida OIV infeksiyasi haqida xabardorlikni oshirishga qaratilgan turli targ'ibot-tashviqot tadbirlari o'tkazilmoqda. Bundan tashqari, ommaviy axbarot vositalari va internet tarmoqlari orqali OAV infeksiyasi xavfini muntazam yoritib boruvchi alohida bloglar va saytlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ijtimoiy videoroliklar, maqolalar va efilrlar orqali aholiga OIV haqidagi aniq va to'g'ri ma'lumotlar yetkazilishi yo'lga qo'yilmoqda.

Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida, mehnat jamoalarida va mahallalarda OIV infeksiyasi profilaktikasiga bag'ishlangan seminarlar, treninglar va uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Bu tadbirlar jamiyatda OIV haqidagi stereotiplarni yo'q qilishga, virusning tarqalishini oldini olishga va kasallanganlarga nisbatan bag'rikenglik muhitini shakllantirishga qaratilgan.

Ushbu tadbirlarning barchasi OIV infeksiyasini tarqalishining oldini olish va unga chalingan insonlar hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan statistik raqamlar va ma'lumotlarga tayanib shuni aytishimiz mumkinki, insoniyat turli kasallik va epidemiyalarni boshdan kechirishi yoki unga qarshi kurash choralarni izlashi va hatto uni topishi ham mumkin. Lekin insoniyat uni keltirib chiqaruvchi omillarni to'g'ri anglab, unga qarshi to'g'ri hayotiy chora tadbirlarni qo'llamas ekan, bu masalada kutilgan natijaga erishish mushkul bo'ladi. Bugungi kunda sog'lom turmush tarzi va to'g'ri hayot tarzini tashkil etish har bir insonning nafaqat o'ziga balki uning yaqinlari va jamiyatga manfaatli bo'lishini tushungan holda ma'suliyatliroq bo'lish talab etiladi.

Xalqimizda bu borada ibratli naql bor "Kasallikni davolagandan ko'ra uni oldini olgan yaxshidir". Umumiy olganda OIV infeksiyasi nafaqat tibbiy balki ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik muammo bo'lib unga qarshi kurashda kompleks tarzda yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. OIV epidemiyasiga qarshi kurashda axborot yetishmasligi, xavfli turmush tarzi, migratsiya, fohishabozlik va ijtimoiy yotqilik, ishsizlik OIV ning asosiy sabablari sifatida ko'rilmogda. Shu boisdan OIVga qarshi kurash samaradorli natija berishi uchun faqat tibbiy emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy jihatlarni ham qamrab olishi zarur. Jamiyatda OIV bo'yicha to'g'ri axborot tarqatish, zarur himoya vositalaridan foydalanishni rag'batlantirish va maxsus ijtimoiy guruhlar bilan ishlash kabi tadbirlar orqali virus tarqalishini kamaytirish mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki aholi o'rtasida OIV epidemiyasini tarqalishini oldini olish va unga qarshi samarali kurashish uchun tibbiy, ijtimoiy va psixologik omillarni qamrab oluvchi kompleks yondashuv zarur. OIV epidemiyasiga qarshi kurashda kompleks yondashuv-profilaktika, erta tashxis, samarali davolash va ijtimoiy qo'llab quvatlashni o'z ichiga oladi. Profilaktik choralar orqali epidemiya tarqalishini oldini olish, ART orqali bemorlarning hayot sifatini yaxshilash, va ijtimoiy stigma bilan kurashish orqali ularning jamiyatda integratsiyasini ta'minlash mumkin. Barcha sohalarni bu boradagi hamkorlikda ishlashi, keng jamoatchilikni xabardor qilish va qo'llab quvvatlash harakatlarini kuchaytirish OIVga qarshi kurashda muvaffaqiyat kalitidir.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. <https://aniq.uz/statistika/dunyo> 17.10.2024 (soat 11-40)
2. <https://aniq.uz/statistika/dunyo> 17.10.2024 (soat 11-40)
3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (oiv infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to‘g‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2013-yil 7-iyunda qabul qilingan Senat tomonidan 2013-yil 22-avgustda ma’qullangan.
4. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/hiv-aids>
5. SDG 3.3- Sustainable Development Goals- Barqaror rivojlanish maqsadlari - OITS, sil, bezgak va e'tibordan chetda qolgan tropik kasalliklar epidemiyasini tugatish va gepatit, suv bilan yuqadigan kasalliklar va boshqa yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish
6. <https://xabar.uz/ymnf>. JSST dunyoda OIV epidemiyasi eng tez o‘sayotgan mintaqa nomini ma’lum qildi: bu – Afrika emas
7. [https://www.gazeta.uz/uz/2023/02/03/hiv//O‘zbekistonda](https://www.gazeta.uz/uz/2023/02/03/hiv//O'zbekistonda) OIV bilan kasallanganlar soni 45 ming nafarni tashkil etadi. OITSGa qarshi kurashish markazi direktor o‘rinbosari Gulifor Normuratova ma’lumoti
8. <https://lex.uz/docs/6364828>
9. <https://lex.uz/docs/5870549?ONDATE=24.07.2024%2000>.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000